

ABDULLA ORIPOVNING “HIKMAT SADOLARI” TURKUMI – HADISLARNING SHE`RIY SHAKLI SIFATIDA

Nozima Ikromova Husniddin qizi

Toshkent shahar, Alisher Navoiy nomli Toshkent davlat O`zbek tili va adabiyoti universiteti

“Adabiyotshunoslik” (Oliy adabiyot kursi) 2- bosqich magistranti.

Annotatsiya Abdulla Oripovning qator to`plamlari orasida “Hikmat sadolari” va “Haj daftari” turkumi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada turkum yaratilishi ijtimoiy- ahloqiy omillari, shoir ijodiy niyatining ijod mahsuliga aylanish tamoyillari, obrazlarning badiiy talqini haqida yoritiladi.

“Hikmat sadolari” va “Haj daftari” turkumlarida Qur’on va hadis ta’siri. Payg’ambar alayhissalom va davomchilari obrazining badiiy talqini. Ona obrazining poetik ifodasi.

Kalit so’zlar Abdulla Oripov, “Hikmat sadolari” va “Haj daftari” turkumi, ona obrazi, payg’ambar obrazi, hikmatli she’rlar, hadislar.

СЕРИЯ МУДРОСТЕЙ АБДУЛЛЫ ОРИПОВА - КАК ПОЭЗИЧЕСКАЯ ФОРМА ХАДИСОВ

Нозима Икромова Хусниддин кизи

Ташкентский государственный университет узбекского языка и литературы имени Алишера Навои, г. Ташкент, 2 курс магистратуры по специальности «Литературоведение» (Высший литературный курс).

Аннотации: Среди собраний Абдуллы Арипова особое место занимают серии «Голоса мудрости» и «Книга хаджа». В статье описаны социально-этические факторы создания сериала, принципы творческого замысла поэта стать продуктом творчества, художественной интерпретации образов.

Ключевые слова: Абдулла Арипов, серии «Голоса мудрости» и «Книга хаджа», образ матери, образ пророка, мудрые стихи, хадисы.

Adabiy turlar orasida eng nozik, ekspressiv va emotsional, ixcham shakli, inson ruhining tarjimoni, shubhasiz, she`riyatdir. Haqiqiy ijodkor oddiy voqea-hodisalarni betakror tashbehlar, ta`sirchan ifodalar, purma`no fikrlar bilan

ifodalashi orqali san`at tug`iladi –vujudga keladi. Zotan, Abdulla Oripov she`rlari teran mushohada, lo`nda xulosalar, zohiriy va botiniy falsafaga boy. Shoirning ijodini umumiy o`rganar ekanmiz, unda xalqona ohang, hikmatlar, aforizmlar ko`p qo`llanganini kuzatamiz. Hassos shoir so`z tanlash mahorati orqali bandasining barchasi ham ko`ngilning tub-tubida tan oluvchi, tabiat va jamiyatni aks ettiruvchi hayotiy haqiqatlarni sodda tilda dangal ifodalaydi. Shu boisdan Abdulla Oripov she`rlari sevib o`qiladi, xotiraga tez muhrlanadi.

Abdulla Oripovning qator to`plamlari orasida “Hikmat sadolari” va “Haj daftari” turkumi alohida ahamiyat kasb etadi. Ushbu to`plamdagi barcha she`rlarda diniy-axloqiy mezonlarimiz ruhi, musulmon kishiga xos bo`lgan fazilatlar yoxud mo`minga mos kelmaydigan illatlar jo`n tilda, quyma satrlar orqali aks ettirilgan.

Agar sen qiblaga burmasang yuzni

Besh mahal sajda-yu namozing bekor,

Jannatga hech qachon tikmagil ko`zni

Agar bir mo`minga yetkaysang ozor”, deb yozadi “Rioya” nomli she`rida.

“Hikmat sadolari” turkumidan joy olgan aksariyat she`rlar Qur`on va hadislarga tayanib yozilgan bo`lib, payg`ambarimizning hayot yo`llari, ularga xos bo`lgan xislatlar va mo`minlarga da`vati obrazli ifoda etilgan.

Rasululloh dedi: umid qil banda,

Ko`chmasin dunyodan insof, diyonat,

Nopok odamlarga kuning qolganda,

Bilgilki, o`sha kun kelgay Qiyomat! (“Qiyomat” she`ri)

Tarixda hadislarni she`riy tizimga solib asarlar yaratilgan, shoirning ushbu to`plami ana shularning mantiqiy davomi deyish mumkin. Payg`ambarimizning : “Kim ummatimga dini bilan aloqador qirqta hadis yodlatsa, Alloh taolo uni qiyomat kuni faqihlar va olimlar guruhiga kiritadi”, deb marhamat qilganlar. “Hikmat sadolari” turkumidagi she`rlar soni ham qirqta. Shoirning o`zi bu haqda shunday deydi: “Bu hikmatlar mening uchun tamomila o`zgacha ziyoratgohdir. Ular me`ning e`tiqodimdir”¹ .

¹ Орипов Абдулла. Хикмат садолари. Инсоф ва диёнат излаб. “Нур”,1993, Б-7.

Ijodkor ushbu to'plamgacha "Jannatga yo'l" dostonini yaratgan, qator she'rlarida odamlarga xos xudbinlik, qo'rqqoqlik, riyo va shuhratparastlik kabi illatlarni ro'yi rost ko'rsatgan, insonlarni hushyorlikka, ezgulikka, birlashishga chorlagan edi.

Koinot gultoji insondir azal
Undadir eng oliy tafakkur, amal
Hatto u tubanlik ichra ham tanho
Yo, falak ijoding buncha mukammal.

Demoqchi bo'lamizki, shoirning hikmatlargacha bo'lgan qator asarlari unga poydevor bo'lib xizmat qilgan. "Ibodot", "Inson", "Ona", "Ota", "Qiyomat" kabi she'rlarni o'qigan o'quvchi islomning bosh mezoni, payg'ambarimiz (s.a.v.)ning mo'minlarga da'vatini oson va ravon shaklda tushunadi. Payg'ambarimizning ona haqidagi hadislarini aks ettiruvchi "Ona" she'rini o'qimagan yoxud eshitmagan biror o'zbek xonadoni bo'lmasa kerak.

Rasul javob qildi:-Tingla, birodar,
Gapimni uch bora quloqqa ilgil.
Imkon topa olsang dunyoda agar,
Eng avval onangga yaxshilik qilgil!

"Hordiq", "Vahiy", "Me'roj", "Duo", "Kamolot", "Azroil" kabi she'rlarda payg'ambarimizning yashash tarzlari pokiza va oddiy, naqadar kamtarliklari, komil va saxovatli bo'lganliklari haqidagi hadislar aks etgan.

Ular tag'in dedi: -Siz-ku payg'ambar,
Tomingiz ne uchun bu qadar pastdir?
Rasul javob qildi: -Tinglangiz, magar
Balandni istagan balandparastdir. ("Kamolot" she'ri)

Hikmatlarning yashovchanligini, ta'sirchanligini ta'minlab bergan narsa shubhasiz, uning tilidir. To'plamdagi "Ona", "Do'zaxiyalar", "Ota" kabi she'rlar muayyan hadisga tayanib yozilgan, tarixiy faktlar obrazlar vositasida badiiy asarga aylangan.

Yovlashdi bir kuni ikki musulmon,

Oradan adolat tamoman ko`chdi.
Ular olishdilar, uzoq, beomon,
Oqibat birining kallasi uchdi.
Kimdir payg`ambardan so`radi kelib!
-Ayo, Rasululloh, aylagil javob.
Hoynahoy, raqibin qonga g`arq qilib,
Ul kas jahannamda tortgaydir azob?
Rasululloh dedi!- U ham va bu ham
Mahkum bo`lg`uvsidir do`zax to`riga
Ikkov ham maydonga tushganlari dam
O`lim tilaganlar biri-biriga.

Ma`lumki, badiiy obraz borliqning san`atkor ko`zi bilan ko`rilgan, ideal asosida qayta ishlangan aksi hisoblanadi. Abdulla Oripov "Do`zaxiylar" she`rida payg`ambarimizning "Ikki guruh mo`minlar bir-birlari bilan urishsalar, o`rtalariga tushib, yarashtirib qo`yingiz, zero Oллоh ularni ham mo`minlar deb atagan"² hadisini mahorat bilan badiiy obrazlar vositasida qayta jonlantiradi.

Sahoba Ahnaf rivoyat qiladi: "Mana bu kishini himoya qilgani yo`l oldim. Yo`lda Abu Bakr yo`liqdi. "Qayoqqa ketyapsan?", -dedi. "Mana bu kishiga yordamlashgani ketyapman", - dedim. "Qayt, men Rasululloh sallolohu alayhi va sallamdan eshitganman, agar ikki musulmon qilich yalong`ochlab bir-biriga hamla qilsa, o`ldirgan ham, o`lgan ham, do`zaxga tushgaydir. "Yo Rasululloh, o`ldirgan-ku mayli-ya, o`lgan nega tushgaydir?", - deganimda, "U ham sherigini o`ldirmoqqa jazm qilgandir", -deb aytganlar", -dedi".

Lirikaning asosiy xususiyati tuyg`u-kechinmalarni ifodalashi hisoblanadi. Ushbu she`rda epik asarlarga xos bo`lgan voqeabandlik, dramatik asarga xos bo`lgan dialog mavjud va ular shoirning ijodiy niyatini aks ettirmoqda. Ijodkor so`zlarni usta did bilan qo`llaganki, ko`z o`ngimizda bevosita urush sahnasi gavdalanadi. Birinchi misrada qo`llangan yovlashdi so`zi jumlaning emotsional-ekspressivligini kuchaytirishga xizmat qilgan. Ya`ni, bunda tilni qo`llashdagi

²Imom Buxoriy. "Al jomi` as sahih", I jild, 10-bet. www.ziyouz.com kutubxonasi

odatiy normadan og`ish mavjud. Dushman, g`anim so`zlarining ma`nodoshi yov so`zidan yangi bir so`z – yovlashmoq fe`li hosil qilingan. Shoir payg`ambarimiz yashagan davr koloritini berish uchun shu so`zdan foydalangan. Kesim vazifasini bajargan ushbu so`zning misra boshida kelishi misradagi hissiyotni oshirmoqda.

“Ul kas jahannamda tortgaydir azob” jumlasidagi odam va do`zax so`zlari o`rnida ularning sinonimi kas va jahannam so`zlarining qo`llanishi ham asosiy g`oya – mo`minning mo`min bilan yovlashishi qat`iy man etilganini ifodalashga xizmat qilgan. Umuman olganda, shoir hikmatlarda so`zning qudratini, kuchini, mo`jizasini, ohang va tartibning emotsional-ekspressiv jihatini yaqqol ko`rsata olgan.

Shoir so`z haqidagi quyidagi to`rtlikni keltirgan edi:

So`z asli payg`ambar,

U bois balki

Odamzod tanigan o`z Xudoyini

Erigan temirning tomchisi kabi

O`rtab yuborar u tekkan joyini.

Sirasini aytganda, Abdulla Oripovning “Hikmat sadolari” to`plamini islom dinini aks ettiruvchi o`ziga xos yo`riqnoma yoxud har jihatdan yetuk badiiy asar to`plami deyish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Орипов Абдулла. Хикмат садолари. Инсоф ва диёнат излаб. “Нур”, 1993, Б-7.
2. Imom Buxoriy. “Al jomi` as sahih”, I jild, 10-bet.
3. Nurboy Jabborov “Zamon, mezon, she`riyat” G`afur G`ulom nashriyoti, Toshkent. 2015.200-bet
4. Abdulla Oripov. “Haj daftari. Hikmat sadolari” 1992
5. Abdulla Oripov “Tanlangan asarlar” G`afur G`ulom nashriyoti, Toshkent. 2001